

SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA MUNOZARALI OTALIK VA ONALIK MASALALARINI HAL QILISHDA DERMATOGLIFIK USUL

Kuryazov A.K.

Yusupov M.A.

Yusupova D.M.

Ilxomova M.M.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14759592>

Dolzarliligi va zarurati. Qo'l barmoqlarining dermatoglifik ko'rsatkichlari asosida yaqin qarindoshlikni aniqlashni sud-tibbiy mezonlarini o'rganish sud-tibbiyot amaliyotida qarindoshlik aloqalarini aniqlashning to'g'ri va oson usullarini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq. Jahon amaliyotida genetik tahlillarga asoslangan usullar katta moliyaviy va vaqt xarajatlarini talab qiladi, shuning uchun genetik testlar imkonsiz yoki maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda yordamchi yoki mustaqil usul sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan dermatoglifika kabi qo'shimcha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi (Smith J., 2020).

AQSH va Yevropada dermatoglifika bir necha o'n yillar davomida o'rganilib kelmoqda va qo'l barmoqlaridagi naqshlar va genetik markerlar o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikni tasdiqlovchi katta hajmdagi ma'lumotlar to'plangan, bu o'z navbatida oilaviy munosabatlarni o'rnatish uchun ishlatilishi mumkin (Johnson M., 2019). Ushbu usul sud tibbiyotida shaxs identifikatsiyasi va irsiy kasalliklarni aniqlash uchun qo'llaniladi, bu esa uni sud ekspertizasi sohasida istiqbolli qiladi (Allemann Y. et al., 2018).

Sud-tibbiyot amaliyoti faol rivojlanayotgan O'zbekistonda dermatoglifik ko'rsatkichlar, ayniqsa, irsiy kasalliklar yoki ommaviy ofatlarda yoki sud-tergov jarayonlarida shaxsning identifikatsiyasi bilan bog'liq holatlarda oilaviy munosabatlarni o'rnatish masalalarini hal etishda muhim vositaga aylanishi mumkin (Abduraimov I.R., 2020). O'zbekistonda dermatoglifikaga asoslangan sud-tibbiyot mezonlarini ishlab chiqish qarindoshlik munosabatlarini o'rnatish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin, bu esa tadqiqot mavzusiga ham ilmiy, ham amaliy jihatdan yuqori dolzarblik beradi.

Tadqiqotning obyekti: o'zbek populyasiyasi orasida 2021-2023-yillar davomida konstitutsiyaviy irqi, jinsi va yoshi hamda antropometrik ma'lumotlardan tashqari, 5 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan 450 nafar ko'ngilli erkak va ayoldan barmoqlarning distal falangalari dermatoglifik ko'rsatkichlarining tahliliy natijalari olindi.

Tadqiqot predmeti: 450 ta tirik odamning barmoq izlarini dermatoglifik tahlil qilish va tekshiriluvchilarning antropometrik o'lchamlarini tahlil qilish natijalari olindi.

Tadqiqot usullari. Barmoq izlari namunalarini olish uchun siyohsiz daktiloskopik skanerlash usullari, olingan izlarni o'rganish uchun – dermatoglikfik usul, bo'y va vaznni o'lchash uchun – antropometrik usullar, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun – statistik usullar qo'llanildi.

12-sonli dermatografik karta.

Familiya : Yusupov Ismi: Muzaffar, Otasining ismi: Adamboyevich.

Tug'ilgan yili 14.03.1985 y. **Tug'ilgan joyi** Xorazm viloyati

Yashash joyi Xorazm viloyati, Urganch shahar, Navro'z shaharchasi Urganch 350 yillik ko'chasi 55 uy.

Millati O'zbek **Bo'yi** 175 sm **Qomat turi:** normostenik

Irsiy kasalliklar: inkor kiladi.

Ota -onasi otasi-Yusupov Adamboy., onasi- Turayeva Kumri

O'ng qo'l

1. osh	2. o'rsatkich	3. 'rta	4. omsiz	5. ijiloq
				

Chap qo'l


6. osh	7. o'rsatkich	8. 'rta	9.nom siz	10.jimjiloq
				

To'ldirilgan sana 05.02. 2023 y.

Tadqiqotlar o'zbek millatiga oid Xorazm viloyati Urganch shahar va Urganch tumanida ko'ngilli aholisi o'rtasida olib borildi. Mazkur ilmiy tadqiqot 450 nafar ko'ngilli insonlarning dermatoglikfik alomatlari o'rtasidagi bog'liqlik tekshirildi. Hisob-kitoblarda 106 ta ko'ngilli oila a'zolarining qo'llari barmoqlari distal falangalarining izlaridan foydalanildi.


Qarindoshlardan tashqari sohta tripletlar guruhiga qo'shimcha yana 50 ta odam kiritildi. Ikkala tanlab olishlarda ham o'g'il bolalar va qiz bolalarning soni teng bo'ldi. Oila guruhlarida ota-onalar (1-rasm) va bolalar jinsi va yoshi bo'yicha taqsimlandi (2-rasmga qarang).

Barmoq izlarini olishda maxsus barmoq yostiqchalarini tasvirini olishga mo'ljallangan biometrik skanerdan foydalanildi. Barmoq andozalarini tahlil qilishda "FM"DGU 2021 0284-



sonli dasturdan foydalanildi.

1-rasm. Oila guruhida ota va onalarning yosh va jinsi bo'yicha taqsimlanishi



2-rasm. Oila guruhida bolalarning jinsi va yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Tadqiqot uchun o'ng va chap qo'llarning barcha barmoqlari izlarini mukammal olish imkoniga ega bo'lgan shaxslar tanlab olindi. Dermatoglikfik belgilarni ko'rinishlarini o'zgartirishga qodir, ko'z bilan aniqlanadigan genetik kasalliklari mavjud bo'lgan hamda distal falangalar naqsh genezida displaziyalari bo'lgan shaxslar tekshiruvdan chetlatildi.

Oila a'zolari o'rtasidagi qarindoshlik pasport va tug'ilganlik guvohnomalari ma'lumotlari bo'yicha aniqlandi, bir qator holatlarda qon serologik usul bilan tekshirilib aniqlandi.

Xulosalar:

1. Ilk bor o'zbek populyasiyasiga mansub oila guruhlarida va soxta tripletlarda qo'l barmoqlarning distal falangalaridagi dermatoglikfik belgilarni tavsiflovchi naqsh turi, uning balandligi, papillyar chiziqlar sanog'ini va genetik aloqadorligi qiyosiy taxlili asosida isbotlandi.

2. Qo'l barmoqlari distal falangalaridagi naqsh markazidagi chiziqlar oqimining yo'nalishi asosida etnik guruxlarda irsiyat bilan bog'liq tarzidagi qarindoshlikni belgilovchi marker ishlab chiqildi;

3. Ota-onalar va ehtimoliy farzand o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlash yoki rad etish uchun naqsh turi, balandligi, deltalar soni va naqsh markazidagi chiziqlar oqimining shaklini o'z ichiga olgan qo'l barmoqlari distal falangalari dermatoglikfik belgilar bo'yicha identifikatsiyalash tartibi ishlab chiqildi;

REFERENCES

1. Абрамова Т.Ф. Пальцевые дерматоглифы- генетические маркеры снижения физического потенциала Сб. науч, трудов ВНИИФК . -М.,1997.-С.1-3.
2. Абрамова Т.Ф. Асимметрия признаков пальцевой дерматоглифики, физический потенциал и физические качества человека Морфология.-2000.-Т.118, №5.-С 56-59.
3. Абрамова Т.Ф. Пальцевые дерматоглифики и физические особенности папиллярные узоры: идентификация и определение характеристик личности (дактилоскопия и дерматоглифика).-М.: Б.и., 2002.-С. 113-136.
4. Акопов В.И. Об организационных и научно-экспертных вопросах медико-криминалистической идентификации личности неопознанного трупа Материалы межвузовской научной конференции.-Ростов-на-Дону:Б.и.,2000.-С.175-182.
5. Акопов В. И. Организационные и научные вопросы медико-криминалистической идентификации личности неопознанного трупа с помощью дерматоглифики пальцев рук и ног Проблемы экспертизы а медицине.-2001.-Т.1.-С 8-12.
6. Баранов В.С. Введение в молекулярную диагностику и генотерапия наследственных заболеваний. Специальная литература, С. 1997.- 287.
7. Богданов Н.Н. Особенности ЭЭГ у девочек 6-8 лет с разным дерматоглифическим рисунком кисти. Доклад академик , наук России.-М., 1994.-Т. 338,№ 3.-С.420-424.

8. Богданов Н.Н. Синдром Вильямса-модель генетически детерминированного правополушарного доминирования. Физиологический журнал им И.М. Сеченова.- 1995.-№ .-С. 80-84.
9. Богданов Н.Н. Дерматоглифика пишущих левой. Вопросы психологии.- 1997. -№ 2. – С.76-87.
10. Богданов Н.Н. Значение интегральных подходов и поиске предикторов и изучении механизмов возникновения и развития эпилепсии. Успехи физиологических наук. – 1997. – Т. 28, № 2. -С. 21-37.
11. Богданов Н.Н. Анализ папиллярных узоров серийных убийц. И мат. Международный конференции. Информатизация правоохранительных систем.-М., 1997. – С.23-24.
12. Богданов Н.Н. дерматоглифика серийных убийц. Вопросы психологии.- 1998. -№4.- С.61-65.
13. Богданов Н.Н. Дерматоглифика и дактилоскопия: возможности взаимодействия и взаимного развития. Криминалистика- XXI век: мат. науч. конференции. -М., 2001.- С. 131-134.
14. Богданов Н.Н. История и основные тенденции развития дерматоглифики. Папиллярные узоры: идентификация и определение характеристик и личности (дактилоскопия и дерматоглифика). – М., 2002.- С. 36-59.
15. Божченко А.П. Задача идентификации родственных отношений с использованием методов дерматоглифики. IV конференции «Распознавание образов и анализ изображений: новые информационные технологии».- Новосибирск, 1998. -С. 242-245.